

4.

kmalxonovich A. S. F. THE NECESSITY OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 420-425.

5.

kmalxonovich A. S. F., Yurevna A. Y. VIDEO GAMES IN THE PROCESS OF LEARNING ENGLISH //Евразийский журнал академических исследований. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 897-902.

6.

inaldo M. D., Oktaviani L. Influence of Video Games on the Acquisition of the English Language //Journal of English Language Teaching and Learning. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 21-26.

TA'LIM SOHASI BO'YICHA JANUBIY KOREYA VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI HAMKORLIK JARAYONLARI

Esonaliyev Asadulloh G'iyosiddin o'g'li

*Farg'ona Davlat Universiteti Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi
sidvbd750@gmail.com*

Annotatsiya: Janubiy Koreyada ta'lim optimal holatdaligi hamda O'zbekistoning Janubiy Koreya davlati bilan mustaqillikdan keyingi yillardagi jarayonlari ushbu maqolada yoritiladi. Madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalarini xolisona, haqqoniy yoritish, O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi ikki tomonlama ilmiy hamda madaniy hamkorlik jarayonlari tavsiflash ham maqolaning asosini tashkil etadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida, Janubiy Koreya bilan ta'limning har qaysi yo'nalishida ikki tomonlama shartnomalar imzolandi. Shu bo'yicha ta'limning qator sohalarida ikki mamlakatda ham tubdan o'zgarishlar amalga oshirilganligini ushbu maqolada ko'rishimiz mumkin.

Аннотатсия: В данной статье рассматривается оптимальное состояние образования в Южной Корее и процессы, происходящие в Узбекистане и Южной Корее в годы после обретения независимости. Беспристрастное и правдивое освещение культурных, научных и технических связей. В основу статьи положено описание процессов двустороннего научного и культурного сотрудничества между Республикой Узбекистан и Республикой Корея. В первые годы независимости с Южной Кореей были подписаны двусторонние соглашения

во всех сферах образования. В данной статье мы видим, что в обеих странах произошли фундаментальные изменения в ряде областей образования.

Abstract: *The optimal state of education in South Korea and the processes of Uzbekistan and South Korea in the years after independence are covered in this article. Unbiased and truthful coverage of cultural, scientific and technical relations. The description of bilateral scientific and cultural cooperation processes between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Korea forms the basis of the article. In the early years of independence, bilateral agreements were signed with South Korea in every field of education. In this article, we can see that fundamental changes have been made in both countries in a number of areas of education.*

Kalit soʻzlar: *Janubiy Koreyada taʼlim, boshlangʻich taʼlim, oliy taʼlim, hamkorlik, KOIKA, Havkon, fillial, koreys maktablari, Yaponiya, memorandum.*

Ключевые слова: *Образование в Южной Корее, начальное образование, высшее образование, сотрудничество, KOIKA, Havkon, филиал, корейские школы, Япония, меморандум.*

Key words: *Education in South Korea, primary education, higher education, cooperation, KOIKA, Havkon, affiliate, Korean schools, Japan, memorandum.*

KIRISH

Janubiy Koreya hozirgi kunda taʼlim sifati va taraqqiyot darajasi boʻyicha dunyoning yetkachi mamlakatlaridan biriga aylangan. Chunonchi Janubiy Koreyaning taʼlim tizimi, xususan, maktablari toʻgʻrisida maʼlumotlar juda kam. Janubiy Koreya taʼlim tarbiya tizimi Yaponiyanikiga juda oʻxshash hisoblanadi. Janubiy Koreya Yaponiya va Xitoy oʻrtasida joylashganligi sababli bu yaqinlik mamlakat madaniyatiga kuchli taʼsir oʻtkazgan.

Bugungi kunda mamlakatimizning Koreya davlati bilan aloqlari tobora mustahkamlanayotgan bir paytda mazkur mamlakat taʼlim tizimini oʻrganish alohida dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYASI

Koreys moʻjizasining omillaridan biri mehnatsevar aholisi boʻlsa, yana bir jihati Janubiy Koreyadagi oʻziga xos taʼlim tizimidir. Ushbu mamlakatning taʼlim tizimi besh bosqichli: oʻqish — boshlangʻich maktabda 6 yil, ikkinchi bosqich maktabida 3 yil, yuqori maktabda 3 yil, kollejda 2 yil, universitetda esa 4 yildan iborat. Faqat boshlangʻich va ikkinchi bosqich maktabida taʼlim olish majburiy hisoblanadi. Maktablarda koʻpincha matematika, koreys va ingliz tillari, aniq va ijtimoiy fanlarga koʻproq ahamiyat beriladi. Eʼtiborlisi, barcha taʼlim muassasalarida yuqori tezlikdagi internetdan foydalanish imkoniyati mavjud. Koreys oʻquvchilari maktabda 12 yil mobaynida taʼlim oladilar. Koreys maktablarida oʻquvchilarning reytingi muntazam ravishda tuzib boriladi va bu

reytingda imkon qadar yuqori o`rinlarni egallash o`ta muhimdir, chunki oldinda universtetlarga kirish imtihonlari bor [1].

“Xavkon” deb nomlanuvchi (Yaponiyada “dzyuku” larga o`xshatma) maxsus o`quv muassasalari o`quvchilarning maktab dasturidagi o`quv fanlarini yetarli darajada o`zlashtirishlariga yordam berish bilan shug`ullanadi. Koreys ota-onalari bizning ota-onalar kabi o`z farzandlarining qarshiliklariga qaramay, ularni qo`shimcha umumtalim kurslariga jo`natadilar. Hozirgi paytda musiqa, balet, rassomlik bilan uzviy bog`liq bo`lgan an`anaviy husnixat, shuningdek albatta chet tili o`quv kurslari urf bo`lgan.

Nufuzli o`quv muassasalarida tahsil olib, jamiyatda o`z o`rniga ega bo`lishga intilish va oila qurishni jiddiy qadam sifatida e`tirof etish tendensiyasi yuzaga kelishi natijasida bugungi kunda o`rtacha turmush qurish yoshi qizlar uchun 26 yoshni, yigitlar uchun 29 yoshni tashkil qilmoqda. Janubiy Koreyada xuddi bizdagiga o`xshash farzandlarning biri ota-ona bilan umrbod yashab, ularga izzat-ikrom ko`rsatadi, har tamonlama qo`llab quvvatlaydi [2]. Bu esa farzanlarda vatanparvarlik hissini uyg`otib, ta`limga bo`lgan e`tiborni ortayotganligini ko`rsatadi desak mubolog`a bo`lmaydi.

NATIJALAR

O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” asarida quyidagi fikrlarni uchratamiz “Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo`lga kiritish, milliy tiklanish, o`z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda – bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo`ladimi, madaniyat, ta`lim – tarbiya va ilm-fan bo`ladimi o`zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro`yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko`ramiz. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreyani olaylik. Bu mamalaktalarning ikkinchi jahon urushidan keyin qanday o`gir ahvolga tushib qolganini hammamiz yaxshi bilamiz. Xo`sh, ular nimaning evaziga qisqa davr ichida bu qadar rivojlanishga erisha oldi? Axir, bu o`lkalarda mo`l-ko`l tabiiy xomashyo manbalari, mineral resurslari deyarli yo`q-ku. Albatta, bu borada o`sha paytda dunyoda mavjud bo`lgan siyosiy omillar xalqaro vaziyatning ta`sirini inkor etib bo`lmaydi [3]. Lekin yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o`ziga xos milliy ma`naviyati hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shuning uchun “yapon mo`jiazasi”, yoki “koreys mo`jizasi” haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda “yapon xarakteri”, “koreys tabiati” degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o`rinda avvalo mazkur xalqlarga mansub ma`naviy fazilatlarni nazarda tutadi. Ya`ni bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma`naviyat negizida yanada toblangan, kamolga yetgan.

MUHOKAMA

Fikrimiz davomida, Koreyaning sobiq prezidenti Li Myon Bakning fikrlarini aytib o`tish joiz koreys farzandi haqida “Agar bolalar ota-onalari shu

payt qayerda va nima bilan mashgʻulliklarini bilib turishsa, ularga oilada alohida tarbiya berishning hojati yoʻqdir.

Shunday qilib ikki davlat oʻrtasidagi doʻstlik va hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Koreyslar “chxodin xakkyo” deb ataydigan boshlangʻich maktabga 7 yoshdan 13 yoshgacha boʻlganlar qatnaydi. Bu yerda 6 yoshdan oʻqishi boshlanganlar ham topiladi. Oʻqish muddati — 6 yil hisoblanadi. Koreys tili, matematika, aniq fanlar, ijtimoiy fanlar, chet tillar, tasviriy sanʼat va musiqa oʻrganiladigan fanlarga kiradi. Odatda ushbu fanlarning barchasi bir nafar sinf rahbari tomonidan oʻqitiladi. Biroq baʼzi ixtisoslashtirilgan fanlarni boshqa oʻqituvchi oʻtishi mumkin. Taʼlim tizimining boshlangʻich maktabdan oʻrta maktabga oʻtish bosqichi turli imtihonlar natijasi asosida emas, balki faqat oʻquvchining yoshiga qarab belgilanadi.

XX asrning 80-yillari oxirigacha ingliz tili odatda ikkinchi bosqich maktabidan oʻqitila boshlangan, biroq hozir u boshlangʻich maktabning 3-sinfidan oʻtiladi. Koreys tili grammatik nuqtayi nazardan ingliz tilidan ancha farq qiladi [4]. Shuning uchun ingliz tilini oʻrganish katta qiyinchilik bilan kechadi. Janubiy Koreya davlatga qarashli boshlangʻich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud.

Janubiy Koreya oliy oʻquv yurtlarning dasturlari davlat muassasalarinikiga ozmi-koʻpmi mos keladi, ammo u ancha yuqori darajada amalga tatbiq etiladi: kam sonli oʻquvchilarga koʻp oʻqituvchilar dars beradi, qoʻshimcha fanlar oʻqitiladi va umuman, taʼlimning yuqori standartlari joriy etiladi. Biroq ularda oʻqish narxi ancha yuqori. Sinf rahbarining obroʻsi balandligi hammamizga maʼlum [5]. Koreys tilida ikkinchi bosqich maktabi “chunxakkyo” deb nomlanadi. Soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “oʻrta maktab” degan maʼnoni anglatadi. Koreys ikkinchi bosqich maktabi 3 sinfdan iborat. Aksariyat oʻquvchilar unda oʻqishni 12 yoshda boshlab, 15 yoshda tugatadi.

Ikkinchi bosqich maktabi oʻz oʻquvchilariga boshlangʻich maktabga qaraganda ancha yuqori talablar qoʻyadi. Deyarli, har doim oʻquvchilar hayotining boshqa jihatlariga kabi kiyim va soch turmagi qatʼiy tartibga olinadi. Boshlangʻich maktabda boʻlgani kabi oʻquvchilar kunning asosiy qismini sinfdoshlari bilan bir sinfda oʻtkazadilar, ammo har bir fan oʻz oʻqituvchisi tomonidan oʻqitiladi. Sinf rahbarlari (koreyscha “tamim sonsennim”) oʻquvchilar hayotida muhim rol oʻynaydi va boshqa yurtlardagi hamkasblariga qaraganda katta obroʻga ega [6].

Bugungi kunda Oʻzbekiston Oʻzbekiston va Janubiy Koreya bilan yaqin hamkoridir. Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janubiy Koreya davlatining hamkorligini shunday izohlagan edi. “Janubiy Koreya Oʻzbekistonning ishonchli va ustuvor sherigi” deb taʼkidlagan edilar.

Mamlakatimiz oliy oʻquv yurtlari Janubiy Koreyadagi 45 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasasi bilan hamkorlik oʻrnatgan. Poytaxtimizda Koreya Respublikasining toʻrtta universiteti filiali ochilgan. Shuningdek, Fargʻona

shahrida O'zbekiston – Koreya Xalqaro Universiteti o'z faoliyatini olib bormoqda. Xususan Farg'ona davlat universiteti akademik litseyida ham KOICA bilan hamkorlikda koreys tili kurslari tashkil qilingan [7]. Fan, ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorliklar faol rivojlanmoqda. 1992 -yildan O'zbekistonda Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi qoshida koreys ma'rifat markazi faoliyat yuritmoqda, unda 1000 dan ortiq kishi har yili koreys tilini o'rganmoqda. Bundan tashqari, koreys tili O'zbekistonning 22 ta maktab va kollejida va 5 ta oliy o'quv yurtida o'qitiladi (uchta oliy o'quv yurtida koreys tiliga ixtisoslashgan kafedra mavjud). Seuldagi xorijiy tadqiqotlar Koreys universitetida koreys talabalari koreys tilini o'rganishi mumkin bo'lgan Markaziy Osiyo tadqiqotlari kafedrasi ochilgan.

Xulosa: Bugungi kunda ikki mamlakat o'rtasida qo'shma ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning televizion kanallarida Janubiy Koreya filmlari berib boriladi. Ijodiy jamoa yo'nalishi bo'yicha doimo almashinuv amalga oshiriladi. O'zbekistonda turli sohalarida janubiy koreyalik ko'ngillilar KOICA yo'nalishi bo'yicha ishlaydilar. Shunday qilib, koreys va o'zbek xalqi ma'naviy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganligi ular o'rtasidagi umumiy aloqalarni davlatlar darajasida, tadbirkorlik o'rtasida va ikki xalq miqyosida to'g'ri va istiqbolli yo'lga solinishiga yordam berdi va o'zining mustahkam zaminiga ega bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2011.
2. Mirziyoyev.Sh.M.Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik T.:2021
3. Каримов. И .А. Юксак маънавият енгилмас куч.-Т.:Манавият .2008.
4. Ли Мён Бак .Мўжиза содир бўлмайди. Т.: Ўзбекистон. 2009.
5. Marifat .uz 11.10.2019 yil.Janubiy Koreya taraqqiyotidagi ikkinchi m'ojiza
6. Xurriyat gazetasi 2014-yil 2-iyul 28 son
7. V.S .Xan Koreya tarixi ,T.: “Baktria-press” 2013.